

GRAFIKA SAN'ATI TARIXI VA RIVOJLANISHI

Karshiboyeva Dilafroz Boxodirovna

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti
“Dastgoh va kitob grafikasi” yo’nalishining
2-bosqich magistranti.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san’atning grafika san’ati tarixi va rivojlanishi to’g’risida qisqacha ma’lumotlar keltirilgan. Unda grafika asarlarida boshqa san’at turlari kabi, g’oyaviy, hissiy va psixologik jihatdan ulkan asarlarni ifodalanishi, g’oyasi va maqsadi yoritilgan bo’lib, uning bugungi kundagi va tasviriy san’atdagi ahamiyati xususida so’z yuritilgan.

Tayanch so’zlar: Tasviriy san’at, qo’lyozma, kitob, yozuv, muqova, san’at asarlari, dastgohli grafika.

Qadimda mo’tabar qo’lyozma ijodkorlari ham o’z asarlarini ajoyib naqshlar bilan bezaganlar. Shuning uchun qo’yozmalar bugungi kunda noyob san’at asarlari sifatida yuksak baholanadi. Tarixchilarining yozishicha, bir dona miniatyuralar va naqshlar bilan bezatilgan kitobning narxi katta bir shaharning bir yillik solig’iga teng bo’lgan. Umuman o’rta asr Sharq nodir qo’lyozmalari muqovasoz, xattot naqqoshlarining zahmatli mehnati natijasida yuksak san’at namunasiga aylantirilgan. Toshbosma kitob, so’ngroq esa hozirgi matbaa texnologiyasi kashf etilishi bilan kitob bezagi ishlarida juda katta o’zgarishlar yuz berdi. Avvalari qo’lyozma kitob yillar davomida yagona nusxada yaratilsa, endilikda zamonaviy dastgohlar yordamida qisqa davr mobaynida ko’plab nusxada nashrlar chop etishi mumkin.¹

Davlatimiz rahbari SH.M.Mirziyoyev tomonidan yosh ijodkorlarning kelajagi haqida “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to’g’risida” 2020 yil 21 aprel, PQ-4688-sonli qarori imzolandi. Unga ko’ra, tasviriy va amaliy san’at sohalarida milliy merosimizni tiklash, Komoliddin Behzodning boy ijodiy merosini xalqimizga to’la yetkazish, soha rivojiga katta hissa qo’shgan atoqli rassom va xalq ustalari xotirasini abadiylashtirish, ijodiy yo’nalishda oliy o’quv yurtidan keyingi ta’limni tashkil etish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda mamlakatimizda tasviriy va amaliy san’at xamda dizayn sohasi samaradorligini yanada oshirish maqsad qilib qo’yilgandir.

Tasviriy san’at mamlakatni ilm-fan va sport kabi dunyoga tanitadi. Shuningdek, xalqlararo munosabatlarni mustahkamlanishida, ularning tarixini o’rganishda muhim

¹ Temuriylar va Boburiylar davri madaniyati, kitobot va rangtasvir san’ati tarixiga chizgilar. San’at jurnali nashriyoti Toshkent-2005. 104-bet.

ahamiyat kasb etadi. Tasviriy san'at turlaridan biri grafika san'ati tarixiga nazar tashlar ekanmiz, uni eng keng tarqalgan san'atning bir turi deb hisoblashimiz mumkin.

GRAFIKA yunoncha so'z bo'lib, graphike, grapho — yozaman, chizaman degan ma'nolarni bildiradi va tasviriy san'at turlaridan biri hisoblanadi. Grafika termini dastlab xat va xattotlik san'ati ma'nosida qo'llanilgan. 19-asr oxiri 20-asr boshlaridan yangi ma'no kasb etdi, poligrafiya sanoatining rivoji, fotomexanikaning vujudga kelishi bilan tasviriy san'at turiga aylandi.²

Grafika asarlari asosini shtrixlar, konturli, yaxlit qism va boshqa chizmatasvirlar tashkil qiladi. (asosan oq va qora ranglarda). Grafika san'at turiga, dastgohli va kitob grafikasi mansubdir.

Dastgohli grafika tarkibiga – chizmatasvir va grafikaning turli texnikalarida yaratilgan mustaqil grafik asarlar kiradi.

Kitob grafikasi – kitob nashrining tarkibiy qismini tashkil etadi. illyustratsiyalar (bezaklar), vinetkalar, zastavkalar (matn boshidagi bezak), bosh harflar, avantitul, titul, forzats, jild (pereplyot), muqova, supermuqova, g'ilof- kitob grafikasi elementlari hisoblanadi.

Grafika - bugungi kungacha mavjud bo'lgan tasviriy san'atning eng qadimgi turi. Dastlabki grafik chizmalar ibridoiy davrda odamzotning g'orlardagi tosh devorlarga, suyaklarga o'yib ishlangan tasvirlarga borib taqaladi. Ibtidoiy odam birinchi chizmalarni yarata turib nafaqat o'z atrofidagi voqealarni tasvirlagan, balki uzoq vaqt mobaynida odamlar orasida o'zaro muloqot vazifasini o'tagan (4-5-rasmlar). SHu tarzda odamzot uzoq o'tmishda tasvirlar yordamida o'z fikrini bayon qila turib grafika san'atining poydevorini yaratgan. Yozuvning paydo bo'lishi bilan grafika dekorativ harakterga ega bo'ldi. Qo'lyozma kitoblarda, yorliqlarni bezatilishida, matnni ajratib ko'rsatishda va umuman shriftni yaratilishida katta san'atda qayta rivojlandi.



4-rasm. Sarmishsoy daralaridagi qoya toshlarga o'yib ishlangan tasvirlar.
Eramizdan oldingi VI-V- asrlar

² O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil 429 bet.

Agar kitob grafikasining rivojlanishi uning qadimgi qo'lyozmalardan boshlanganiga e'tibor qaratilsa, unda ham triptix va diptixlar bo'lgan, keyinchalik esa frontispis, forzats, muqova va supermuqovalar yaratildi. Dastgohli grafika asari devoriy mahobatli rangtasvir va miniatyradagi alohida personajlar ularning portretlari, muhim tasvir motiv va elementlari, shuningdek mahobatli rangtasvirning ba'zi fragmentlarini mustaqil tasvir motivlariga aylantirishdan kelib chiqadi.³



5-rasm. Nurota yaqinidagi qoya toshlarga o'yib tushirilgan tasvirlar
Eramizdan oldingi VI-V- asrlar

Dastgohli grafika asarlari chizmatasvir, ksilografiya, linogravyura, sinkografiya, litografiya, shelkografiya, kartondagi gravyura, mis plastinkadagi gravyura, ofort, metssso-tinto, akvatinta, quruq nina va boshqa grafika texnikalarida bajarilishi mumkin. Grafika asosini chizmatasvir tashkil qilgani bilan unda rangdan ham foydalaniladi. Biroq bunda rang rangtasvirdagiga o'xshab asosiy rolni o'ynamasdan yordamchi vosita o'rnila qo'llaniladi.

Grafika asarlari, mahsulotlari tez tayyorlash imkonii, sikl va turkumlar yaratish mumkinligi, tashviqot va targ'ibotga mosligi va boshqa. Uni tasviriy san'atning eng ommaviy muhim sohasiga aylantirdi. Texnikasi jihatidan grafika 2 turga ajratiladi: qo'lda chiziladigan rasm va matbaada chop qilinadigan, ko'p nusxada nashr etiladigan bosma mahsulotlar (gravyura, litografiya, linogravyura, ksilografiya, ofort).⁴

Endi, grafikaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Turli grafik texnikalar vositasidan foydalanib, (taxtani kesganda, metallni zarb qilganda va hokozo) ko'p tirajli asarlar yaratishimiz mumkindir. Va buni grafika san'atining bir turi "Gravyura" deb ataymiz. "Gravyura" fransuz tilidan olingan "kesish", "o'yish" degan ma'nolarini bildiradi. Gravyurada rasmlar qattiq materiallarga chizish va kesish orqali bajariladi. Ya'ni rasmlar avvalo metall, yog'och, linoleum, tosh kabi materiallarda ishalanib, so'ng undan qog'ozga ko'p tirajda nusxa ko'chiriladi. Gravyuraning metallda tayyorlanadigani ofort deyiladi. Bunda tasvir mis, rux plastinkalarga tushurilib, maxsus asboblarda chiziladi va kislotada ishlov berilib,

³ A.KALANOV. Grafika kompozitsiyasida badiiy yechim. Darslik. Toshkent 2022y. 6-bet.

⁴ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil 429 bet.

bosma usulda nusxa olinadi. Yog'ochdag'i gravyura ksilografiya deb nomlanib, bu yo'nalishda tasvir yog'ochda xosil qilinadi va qog'ozga ko'chiriladi. Bunda xam tasvirlar ko'p tirajda ko'chirilishi mumkin. Lenoliumda o'yilgan gravyura-linogravýura, toshga chizilgan tasvirdan yassi bosma usulda olingan nusxa esa litografiya deb ataladi.

Grafika asarlari ko'plab sohalarda ya'ni reklama, estamp, plakat, gazeta-jurnal bezaklari, pochta markalari, karikaturalar, tashkilot emblemalarida, teatr va kino afishalarida va shunga o'xshash ko'plab maqsadlarda foydalaniladi.

O'zbekistonda grafika 20-asrda shakllandi va rivojlandi. Rassomlar I. Ikromov, V. Kaydalov, L. Abdullayev, T. Muhamedov, K. Nazarovlar kitob bezaklari, Q. Basharov ilk kitob suratlari va ajoyib linogravýura asarlari bilan o'zbek tasviriy san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar va o'zbek grafikasi matabining vujudga kelishiga zamin yaratdilar.

20-asrning oxirgi choragida ijodkorlar safiga M. Kagarov, L. Ibrohimov, M. Sodiko v, A. Mamajonov, A. Bobrov, V. Apuxtin, F. Basharova, A. Li, G. Li kabi rassomlarning kelib qo'shilishi grafikani ham badiiy mahorat, ham mavzu jihatdan boyishini ta'minladi. O'zbek grafikachilari grafikaning barcha sohalari (akovarel, litografiya, ksilografiya va boshqalar)da samarali ijod qilib, mavzu jihatdan rang-barang (tarix, zamonaviylik, ekologiya va boshqalar) asarlar yaratmoqdalar. Juhon va o'zbek mumtoz adabiyotiga, Sharqning buyuk arboblari, yozuvchi va olimlari siymolariga murojaat qilmoqdalar.⁵

Grafikaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu uning katta o'lchamda bo'lmasligi va bo'yoqlar sonining chegaralanganligidir. Bunda rassom o'z asarini tasvirlashda oq-qora ranglardan foydalanadi. Asarda bundan tashqari chegaralangan miqdorda turli xil bo'yoqlardan foydalanishi mumkin, lekin bunda ranglar asarning asosini tashkil etmaydi. Grafika asarlari ba'zan katta o'lchamda xam bo'lib, ular ko'p nusxada tayyorlanishi va katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi, targ'ibot va tashviqot ishlarini bajarishi mumkin. Buni tasviriy san'atda Plakat deb ataymiz. "Plakat" fransuz tilidan olingan bo'lib, "e'lon" ma'nosini anglatadi. Plakatlar insonlar xayotidagi eng muhim bo'lgan muammolarni yechimiga qaratiladi ya'ni yuqorida ta'kidlaganimizdek targ'ibot va tashviqotga mosligidadir. Jumladan: Tinchlik, ekologiya, OITS, sog'lik kabi muammolar plakat uchun o'ta muhim bo'lib, ular katta o'lcham va ranglar ishtirokida bajariladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek kitobxon kitobni qo'liga olar ekan, undagi chizilgan illiyustratsiyalar orqali o'sha davr odamlarining madaniyati, turmush tarzi, mamlakati, tabiatni to'g'risida tushunchaga ega bo'lmos'h'i lozim. Buning uchun rassom

⁵ [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil 429 bet.

tanlangan kitobni o'rganib chiqmog'i, asardagi voqealarni o'sha davrga xos materiallar bilan tanishib chiqmog'i lozim bo'ladi.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan tasviriy san'at rivojiga bo'layotgan e'tibor barcha ijodkorlarni ruhlantirib kelmoqda. Respublikamizda yagona Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida bo'lg'usi rassom va dizaynerlar ta'lim olishadi. Yoshlarimizning kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishib chiqishlarida institut professor-o'qituvchilar o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati:

1. Temuriylar va Boburiylar davri madaniyati, kitobot va rangtasvir san'ati tarixiga chizgilar. San'at jurnali nashriyoti Toshkent-2005.
2. A.Kalanov. Grafika kompozitsiyasida badiiy yechim. Darslik. Toshkent-2022y.
3. R. Xasanov. Tasviriy san'at asoslari. G'. G'ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi. Toshkent-2009y.
4. O'zME. Birinchi jild. Toshkent-2000-y